



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


SURXONDARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2024-YIL YANVAR-MART
(DASTLABKI MA'LUMOT)



Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


Bugungi kunda viloyatda 3097 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 453 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 14,6 % i) Termiz shahriga, 374 tasi (12,1 %) Denov tumaniga, 238 tasi (7,7 %) Sariosiyo tumaniga, 217 tasi (7,0 %) Sho'rchi tumaniga va 209 tasi (6,7 %) Uzun tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan



Jami faoliyat yuritayotgan



Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2024-yil yanvar-mart oylarida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024-yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 2141,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 104,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 93,5 % ni tashkil etdi.



B

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




C

Ishlab chiqaradigan sanoat



D

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash







E





Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da

2023-yil
yanvar-mart




2024-yil
yanvar-mart



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, Ishlab chiqaradigan sanoat – 8,8 % ga o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 51,6 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,4 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-mart	2024-yil yanvar-mart	Farqi +/-
Ko'mir, ming t.	60,9	77,3	16,4
Neft, ming t.	18,7	18,6	-0,1




Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-mart	2024-yil yanvar-mart	Farqi +/-
Qattiq tuz, ming t.	6,3	4,7	-1,6
Tabiiy qumlar, ming t.	1,8	9,3	7,5

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

yanvar-mart

FHI,% da



2024-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2002,1 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 93,5 % ini tashkil etdi.


2023-yil yanvar-mart

93,0 %

2024-yil yanvar-mart




93,5%






O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 % ni (2022-yilning yanvar-mart oylarida – 0,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 1,3 % (0,4 %), o'rta-quyi texnologiyali – 22,3% (23,2 %) va quyi texnologiyalisi – 76,1 % (72,1 %)ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 9,5 % (2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 196,9 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 1,5 % (2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 153,2 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 56,4 % (2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 115,1 %), mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, treylerlar, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish ulushi – 6,4 % (2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 117,2 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da






2024-yilning yanvar-mart oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 13,5 ming tonna paxta tolasi (2023-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 3,0 martaga ga ko'p), 6,5 ming tonna boshqa guruhlariga kiritilmagan suyuq neft yoqilg'isi (mazut) (58,4 % ga kam), 3,6 ming tonna lint (44,0 % ga ko'p), 51,3 ming tonna neft bitumi (16,0 % ga kam) hamda ishlab chiqarilib, kam o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-mart	2024-yil yanvar-mart	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming t.	9,1	13,5	4,4
Paxta tiviti (lint), ming t.	0,7	0,8	0,1
Neft bitumi, ming t.	11,8	9,4	-2,4
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	15,5	10,8	-4,7
Yigirilgan bir qavatli, ming t.	2,2	2,6	0,4
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	0,9	1,2	0,3

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-mart oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,6 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 116,7 bo'lsa, 2024-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 1,5 % ni, fizik hajm indeksi esa, 153,2 % ni tashkil etib va ishlab chiqarish hajmi 31,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-mart oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 7,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 126,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 9,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 196,9 % ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 203,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-mart oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 21,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 86,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 84,7 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 247,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-mart oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 232,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-mart - oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 95,1 % ni va ishlab chiqarish hajmi 11,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 49,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 100,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 53,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 116,3 % ga ko'paygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1135,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2023-yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,5 % ni, fizik hajm indeksi esa 116,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,3 %, fizik hajm indeksi 102,1 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 70,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 188,4 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2024-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi 138,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 19,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 93,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,1 % ni, fizik hajm indeksi 50,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 66,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 220,3 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2024-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi 78,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 14,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 41,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,0 % ini) tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-mart oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 55,0 % ni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-mart	2024-yil yanvar-mart	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	16,8	31,2	14,4
Issiqlik energiyasi, ming gkal	10,4	6,1	-4,3
Quyosh elektr stantsiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi, mln kVts	-	0,9	0,9

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 45,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,1 % ini) tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-mart	2024-yil yanvar-mart	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	2,0	2,1	0,1
Boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	7,5	15,8	8,3

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 17,2 mlrd. so'm, oqova suvlarini yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 2,1 mlrd. so'm shuningdek, 15,8 mlrd. so'm boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarildi.



**Surxondaryo viloyat hududlari kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

	2024-yil yanvar-mart mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Surxondaryo viloyati	2141,2	104,2
Termiz sh.	254,0	102,1
tumanlar:		
Angor	72,1	112,8
Bandixon	28,2	103,7
Boysun	25,8	103,2
Denov	228,1	102,0
Jarqo'rg'on	245,1	102,5
Qumqo'rg'on	202,3	112,3
Qiziriq	94,0	100,2
Muzrabot	131,5	106,7
Oltinsoy	61,1	102,3
Sariosiyo	81,8	109,3
Termiz	106,5	104,2
Uzun	101,2	101,4
Sherobod	276,8	100,3
Sho'rchi	232,8	102,8



**Surxondaryo viloyat hududlari kesimida
2024-yil yanvar-mart oyida qayta ishlash sanoatining texnologik turlari
bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so'm)**

	Qayta ishlash sanoati	Shu jumladan:			
		yuqori texnologiyali ishlab chiqarish	o'rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish	o'rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish	quyi texnologiyali ishlab chiqarish
Surxondaryo viloyati	2 002,1	5,6	25,1	447,4	1 523,9
Termiz sh. tumanlar:	186,1	3,2	4,6	75,4	102,9
Angor	68,1	0,2	0,1	6,5	61,3
Bandixon	27,2	0,0	0,0	2,1	25,0
Boysun	25,0	0,0	0,0	10,4	14,6
Denov	227,9	0,0	0,7	22,7	204,6
Jarqo'rg'on	245,0	0,0	0,0	117,1	127,9
Qumqo'rg'on	202,0	0,0	4,9	8,2	188,9
Qiziriq	93,0	0,0	0,0	7,1	85,9
Muzrabot	130,3	2,2	0,0	7,7	120,4
Oltinsoy	57,5	0,0	0,0	12,4	45,1
Sariosiyo	30,9	0,0	0,0	13,1	17,8
Termiz	105,6	0,0	0,0	17,5	88,1
Uzun	101,2	0,0	0,1	27,7	73,4
Sherobod	271,8	0,0	0,0	91,2	180,6
Sho'rchi	230,5	0,0	14,8	28,3	187,4

Surxondaryo viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sherobod tumani 12,9 % ni, Jarqo'rg'on tuman 11,4 % ni, Sho'rchi tumani 10,9 % ni, shuningdek, Termiz shahri esa 11,9 % ni tashkil etdi.

Surxondaryo viloyati

2022-yil

1269,5 mlrd. so'm

2022-yil yanvar-mart

2023-yil

1780,2 mlrd. so'm

2023-yil - yanvar-mart

2024-yil

2141,2 mlrd. so'm

2024-yil yanvar-mart



2022-yil

103,8 %

2022-yil yanvar-mart

2023-yil


103,0 %

2023-yil - yanvar-mart

2024-yil

104,2 %

2024-yil yanvar-mart




FHI, % da

mlrd. so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Sherobod (1310,4 ming so'm), Termiz (1254,1 ming so'm) hamda Jarqo'rg'on (1025,5 ming so'm) tumanlarida va Termiz shahri (1255,5 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (742,3 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Surxondaryo viloyati

2022-yil

461,6 ming so'm

2022-yil yanvar-mart

2023-yil

632,6 ming so'm

2023-yil - yanvar-mart

2024-yil

742,3 ming so'm

2024-yil yanvar-mart



01

101,4 %

2022-yil

2022-yil yanvar-mart

02

100,7 %

2023-yil

2023-yil - yanvar-mart

03


101,6 %

2024-yil

2024-yil yanvar-mart

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1150,6 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 53,7 % ni tashkil etdi.



Surxondaryo viloyati

2022-yil

475,2 mlrd. soʻm

2022-yil yanvar-mart

2023-yil

764,5 mlrd. soʻm

2023-yil - yanvar-mart

2024-yil

1150,6 mlrd. soʻm

2024-yil yanvar-mart



37,4 %

2022-yil

2022-yil yanvar-mart

42,9 %

2023-yil

2023-yil - yanvar-mart

53,7 %

2024-yil

2024-yil yanvar-mart

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o‘shish sur‘atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 48 ta loyiha bo‘yicha 38,9 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2024-yilning yanvar-mart oylarida 101 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining asosiy ko‘rsatkichlari

	<i>2023-yil yanvar-mart</i>	<i>2024-yil yanvar-mart</i>
<i>Loyihalar soni, birlikda</i>	31	42
<i>Korxonalar soni, birlikda</i>	16	28
<i>Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so‘m</i>	24,6	38,9
<i>Eksport qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSh dollari</i>	-	-
<i>Yaratilgan yangi ish o‘rinlari, birlikda</i>	176	101